Mazkur diagrammada tadqiqot jarayonida talabalarning speaking ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar sifat ko‘rsatkichlari asosida ifodalangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, barcha indikatorlar bo‘yicha past darajadan yuqori darajaga tomon barqaror o‘sish kuzatiladi. Ayniqsa, nutq ravonligi, leksik boylik va umumiy test natijalarida sezilarli ijobiy siljish qayd etilgan. Ushbu model sun’iy intellekt asosidagi yondashuvning ko‘nikmalarni kompleks rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ChatGPT asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama. ChatGPT platformasidan foydalanish IELTS speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali yondashuv ekanligi kuzatildi. Nutq ravonligi, grammatik aniqlik va leksik boylikdagi ijobiy o‘zgarishlar muntazam mashq hamda tezkor fikr-mulohaza bilan bog‘liq.

Qo‘llanilgan metodika – nutqni yozib olish, transkripsiya qilish va tahlil qilish – refleksiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirib, mustaqil o‘rganish faoliyatini faollashtirdi hamda, sun’iy intellekt asosidagi yondashuv individual o‘rganish muhitini ta’minlab, talabalarning ehtiyojlariga mos rivojlanishiga xizmat qildi. Biroq texnologiyadan foydalanish darajasi hamda fikr-mulohazani to‘g‘ri talqin qilish omillari o‘rganish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur yondashuv speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali va istiqbolli hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari IELTS speaking ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy raqamli vositalar, xususan, ChatGPT asosidagi yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqladi. Ushbu yondashuv nutq ravonligi, grammatik aniqlik hamda leksik kompetensiyaning izchil rivojlanishini ta’minlashi aniqlandi. Muntazam mashq, refleksiya va tezkor fikr-mulohaza o‘quv jarayoni sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu asosda ingliz tili ta’limida sun’iy intellekt vositalaridan tizimli foydalanish, refleksiya va mustaqil tahlilni o‘quv jarayoniga chuqur integratsiya qilish, shuningdek, individual o‘rganish ehtiyojlariga mos raqamli yondashuvlarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘qituvchilarning texnologik-metodik tayyorgarligini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv til ta’limi sifatini oshirishga xizmat qiluvchi istiqbolli yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-qarori “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent, 2021.

(2). Merrill Swain M. Languaging, agency and collaboration in advanced language proficiency. Byrnes H. (Ed.). Advanced Language Learning. London, Continuum, 2006, p. 95–108.

(3). Rod Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. Oxford, Oxford University Press, 2003, p. 211–220.

(4). Hayo Reinders H., Philip Hubbard P. CALL and learner autonomy: Affordances and constraints. Thomas M., Reinders H., Warschauer M. (Eds.). Contemporary Computer-Assisted Language Learning. London, Bloomsbury Academic, 2013, p. 359–375.

(5). UNESCO Artificial Intelligence in Education. Challenges and Opportunities for Sustainable Development. Paris, UNESCO Publishing, 2019, p. 27–34.

(6). OpenAI ChatGPT: Optimizing Language Models for Dialogue. 2023, Available at: https://openai.com

(7). Chapelle C.A. Computer-Assisted Language Learning: Foundations for Teaching, Testing and Research. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017, p. 112–118.

(8). Warschauer M. Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide. Cambridge, MIT Press, 2020, p. 64–70.

(9). Zine Laabidine H. L’intelligence artificielle: un allié à l’apprentissage du français langue étrangère. Korasat Tarbawiya. 2024, p. 23–29.

(10). Merrill Swain M. Communicative competence: Some roles of comprehensible input and output in its development. Gass S., Madden C. (Eds.). Input in Second Language Acquisition. New York, Newbury House, 1985, p. 235–253.

Avazova Lobar Buriyevna (Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM, “Rus tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi; avazovalobar7@gmail.com;Orcid:0009-0002-6944346X)

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA FAOLIYATIDA OILAVIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlarning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Boburning farzandlariga, ota-onasiga va yaqinlariga bo‘lgan hurmati, oilaviy sadoqati hamda tarbiyaga oid qarashlari uning shaxsiy hayoti va davlat boshqaruvidagi faoliyatida*

muhim ahamiyat kasb etgani yoritiladi. Shuningdek, uning asarlarida, xususan, "Boburnoma"da oilaviy munosabatlar, axloqiy fazilatlar va ma'naviy qadriyatlar qanday aks etgani ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Bobur shaxsida oilaga hurmat, mas'uliyat va tarbiya masalalari yetakchi o'rin egallagani asoslanadi.

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, oilaviy qadriyatlar, tarbiya, axloq, ma'naviyat, "Boburnoma", ota-ona hurmati, farzand tarbiyasi.*

РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЖИЗНИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Аннотация. *В данной статье анализируется роль семейных ценностей в жизни и деятельности Захириддина Мухаммада Бабура. Освещаются его уважение к родителям, забота о детях, взгляды на воспитание, которые сыграли важную роль как в личной жизни, так и в государственной деятельности. Также рассматривается отражение семейных отношений, нравственных качеств и духовных ценностей в его произведении «Бабурнаме». В результате исследования обосновывается, что уважение к семье, ответственность и вопросы воспитания занимали важное место в личности и наследии Бабура.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, семейные ценности, воспитание, нравственность, духовность, "Бабурнаме", уважение к родителям, воспитание детей.*

THE ROLE OF FAMILY VALUES IN THE LIFE AND ACTIVITY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Annotation. *This article analyzes the role of family values in the life and activity of Zahiriddin Muhammad Babur. It highlights Babur's respect for his parents, love and responsibility toward his children, and his views on upbringing, which played an important role in both his personal life and state governance. The study also examines how family relationships, moral virtues, and spiritual values are reflected in his work, particularly in the "Baburnama." The research concludes that respect for family, responsibility, and moral education held a central place in Babur's personality and legacy.*

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, family values, upbringing, morality, spirituality, "Baburnama", respect for parents, child upbringing.*

Kirish (Introduction). Zahiriddin Muhammad Bobur jahon tarixida yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, iste'dodli shoir va yirik adib sifatida alohida o'rin egallaydi. U temuriylar sulolasining munosib davomchisi sifatida murakkab siyosiy jarayonlar, ichki kurashlar va doimiy harbiy yurishlar davrida yashab faoliyat yuritgan. Shunga qaramay, Bobur nafaqat qudratli imperiya asoschisi, balki nozik qalbli inson, oilaparvar va ma'naviy yetuk shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning hayoti va ijodini chuqur o'rganish orqali shaxsiy fazilatlari, axloqiy qarashlari hamda oilaviy qadriyatlarga munosabatini anglash mumkin. Bobur uchun oila muqaddas dargoh bo'lib, ota-onaga hurmat, ajdodlarga sadoqat, farzandlarga mehr va e'tibor uning hayotiy tamoyillaridan biri bo'lgan. U yoshligidan boshlab murakkab sinovlarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, oilaviy tarbiya va ajdodlar an'analari uning xarakteri shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, temuriylar xonadonidagi tarbiya, ilm-fanga hurmat, jasorat va or-nomus kabi fazilatlar Bobur shaxsiyatining asosini tashkil etgan. Bu jihatlar uning nafaqat shaxsiy hayotida, balki davlat boshqaruvida ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Boburning mashhur asari – "Boburnoma"da ham oilaviy qadriyatlar, yaqinlariga bo'lgan samimiy munosabat, farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbat va mas'uliyat hissi alohida aks etadi. Asarda u ota-onasi, ustozlari, qarindoshlari va farzandlari haqida chuqur hurmat va mehr bilan so'z yuritadi. Bu esa Boburning qalb dunyosi, insoniy fazilatlari va oilaga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Ayniqsa, farzandlari tarbiyasiga e'tibor qaratgani, ularni bilimli, jasur va adolatli inson bo'lib yetishishini istagani uning pedagogik qarashlarini ham namoyon etadi. Shuningdek, Bobur hayotida oilaviy qadriyatlar siyosiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. U davlat boshqaruvida adolat, mas'uliyat, sadoqat kabi fazilatlarni ustuvor deb bilgan. Bu esa bevosita oilaviy tarbiya va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liqdir. Bobur shaxsida oila va davlat, shaxsiy hayot va ijtimoiy faoliyat uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi [1].

Mazkur mavzuni o'rganish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Chunki oilaviy qadriyatlar har qanday jamiyatning ma'naviy poydevorini tashkil etadi. Bobur merosini tahlil qilish orqali biz nafaqat tarixiy shaxs hayotini o'rganamiz, balki milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy an'analarimiz va tarbiya masalalariga oid muhim xulosalarga ham ega bo'lamiz. Shu bois Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlarning o'rni masalasi ilmiy va tarbiyaviy jihatdan muhim mavzulardan biri hisoblanadi [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatini o'rganish bo'yicha tarixiy, adabiy hamda ma'naviy yo'nalishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga

oshirilgan. Bobur shaxsiyatida oilaviy qadriyatlarning o‘rni masalasi bevosita va bilvosita tarzda turli manbalarda yoritilgan bo‘lib, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin: birlamchi manbalar, tarixiy-ilmiy tadqiqotlar hamda badiiy asarlar [3]. Birinchi navbatda, asosiy manba sifatida Boburning o‘z qalamiga mansub Boburnoma alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar nafaqat tarixiy voqealar bayoni, balki muallifning shaxsiy kechinmalari, yaqinlariga bo‘lgan munosabati, ota-ona va farzandlariga mehr-muhabbati aks etgan muhim manbadir. “Boburnoma”da Boburning onasi, buvisi, qarindoshlari hamda farzandlari haqidagi samimiy fikrlari uning oilaviy qadriyatlarga sodiqligini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur asar mavzuni yoritishda eng muhim va ishonchli manba hisoblanadi.Bobur shaxsiyati va uning ma’naviy merosini o‘rganishda o‘zbek adabiyotshunos va tarixchilari tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar ham muhim o‘rin tutadi[4]. Xususan, Pirimqul Qodirovning Bobur hayoti va ijodiga bag‘ishlangan asarlari, jumladan, Yulduzli tunlar romani Bobur obrazini badiiy jihatdan ochib beradi. Asarda Boburning shaxsiy fazilatlari, oilaparvarligi va farzandlariga bo‘lgan munosabati badiiy talqin asosida yoritilgan.Shuningdek, bobur shunos olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda Boburning davlat boshqaruvi, axloqiy qarashlari va ma’naviy dunyosi keng tahlil qilingan. Bu tadqiqotlarda uning temuriylar sulolasi an’analari asosida tarbiya topgani, oilaviy muhit uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lgani ta’kidlanadi. Ayrim ilmiy maqolalarda esa Boburning farzandlariga yozgan maktublari va ularning tarbiyasiga doir qarashlari pedagogik nuqtai nazardan o‘rganilgan [5].

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham Bobur shaxsiyati va uning merosi keng o‘rganilgan. Ular, asosan, Boburni davlat arbobi va imperiya asoschisi sifatida tahlil qilgan bo‘lsalar-da, uning insoniy fazilatlari va oilaviy qadriyatlarga sodiqligi ham e’tibordan chetda qolmagan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlar masalasi alohida tadqiqot mavzusi sifatida to‘liq va kompleks o‘rganilmagan bo‘lsa-da, birlamchi va ikkilamchi manbalarda bu masalaga oid muhim ma’lumotlar mavjud. Mazkur mavzu ushbu manbalar asosida chuqurroq ilmiy tahlilni talab etadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlarning o‘rnini yoritish maqsadida tarixiy, adabiy hamda qiyosiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni izchillik, xolislik va ilmiylik tamoyillariga asoslandi.Avvalo, tarixiy-tahliliy metod qo‘llanildi. Ushbu metod yordamida Bobur yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, temuriylar sulolasidagi oilaviy an’analar va ma’naviy qadriyatlar o‘rganildi. Bu esa Bobur shaxsiyatining shakllanishida oilaviy muhitning ta’sirini aniqlash imkonini berdi.Shuningdek, manbashunoslik (manbalarni tahlil qilish) metodi asosiy o‘rin tutdi. Tadqiqotning birlamchi manbasi sifatida “Boburnoma” asari tahlil qilindi. Asardagi oilaviy munosabatlar, ota-ona, farzand va qarindoshlarga doir fikrlar saralab olinib, mazmunan o‘rganildi. Matndagi dalillar asosida Boburning oilaparvarlik fazilatlari ochib berildi. Bundan tashqari, qiyosiy-tahliliy metod orqali Boburning oilaviy qadriyatlarga oid qarashlari boshqa temuriy hukmdorlar hamda o‘z davrining ma’naviy mezonlari bilan solishtirildi. Bu yondashuv Boburning qarashlari umumiy an’analarga mos yoki o‘ziga xos ekanini aniqlashga xizmat qildi [7].

Tadqiqotda, shuningdek, mantiqiy umumlashtirish va xulosalash metodi qo‘llanildi. Olingan ma’lumotlar tizimlashtirilib, ular asosida ilmiy xulosalar chiqarildi. Bobur shaxsiyatida oilaviy qadriyatlarning tutgan o‘rni, uning hayotiy qarorlari va davlat boshqaruvidagi faoliyatiga ta’siri umumlashtirildi. Shu tariqa, mazkur tadqiqot metodologiyasi kompleks yondashuv asosida olib borilib, tarixiylik, izchillik va xolislik tamoyillariga tayangan holda Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashga qaratildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlar markaziy o‘rin egallagan. “Boburnoma” va boshqa tarixiy manbalar asosida Boburning ota-onaga hurmat, farzandlarga mehr va mas’uliyat, qarindoshlarga sadoqat kabi fazilatlarni doimo ustuvor tutgani aniqlangan.Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Bobur shaxsiyatida oila muqaddasligi nafaqat shaxsiy hayotning, balki davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyatining ham muhim tamoyili bo‘lgan. Uning oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibori, farzandlar tarbiyasiga yondashuvi va yaqinlariga bo‘lgan samimiy munosabati uning ma’naviy yetukligini va pedagogik qarashlarini ochib beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Boburning oilaviy qadriyatlarni qadrlashini, ularni shaxsiy hayot va davlat faoliyati bilan uyg‘unlashtirganini ko‘rsatadi. Shu sababli Bobur merosi nafaqat tarixiy va siyosiy, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatida oilaviy qadriyatlar muhim o‘rin egallagan. Bobur o‘z

asarlarida, xususan, “Boburnoma”da ota-onaga hurmat, farzandlarga mehr va mas’uliyat, qarindoshlarga sadoqat kabi fazilatlarni doimiy ravishda ta’kidlagan. Oilaviy qadriyatlar uning shaxsiy hayotida nafaqat ma’naviy poydevor bo‘lib xizmat qilgan, balki davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlarida ham o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Bobur merosi nafaqat tarixiy va siyosiy, balki ma’naviy, axloqiy va tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Uning oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibori bugungi kunda yoshlar tarbiyasi va oilaviy ma’naviyatni rivojlantirish masalasida o‘rnak sifatida foydalanilishi mumkin [8].

Takliflar. 1. Tarixiy manbalarni kengroq o‘rganish – Bobur hayoti va faoliyatiga oid boshqa birlamchi manbalar va maktublar tahlil qilinib, oilaviy qadriyatlar mavzusi yanada chuqurroq o‘rganilishi lozim.

2. Pedagogik tadqiqotlar olib borish – Boburning farzandlar tarbiyasiga yondashuvi pedagogik jihatdan tahlil qilinib, zamonaviy tarbiya uslublariga tatbiq etilishi mumkin.

3. Badiiy talqin va tarbiyaviy materiallar yaratish – Bobur merosidagi oilaviy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish maqsadida darsliklar, hikoyalar va badiiy asarlar tayyorlash tavsiya etiladi.

4. Milliy qadriyatlar bilan bog‘lash – Bobur merosidagi oilaviy va ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy oila tarbiyasi va milliy an’analarga bog‘lab o‘rganish kerak.

5. Xalqaro tadqiqotlar olib borish – Bobur shaxsiyatini va oilaviy qadriyatlarini boshqa mamlakatlar tarixiy va pedagogik tadqiqotlari bilan solishtirish orqali global kontekstda baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бабур З.М. Бабурнома. Пер. с узб. О.Исмоилов. Ташкент, “Шарқ”, 2007 (Перв. изд. XVI в.).

(2). Университет истории Узбекистана. Бабур хаёти ва ижоди. Тарихий тадқиқот. Ташкент, “Фан”, 2010.

(3). Каримов А. Ўзбекистон тарихи. Ташкент, “Шарқ”, 2005.

(4). Раҳмонов С. Бобур шахсияти ва давлат бошқаруви. Тошкент, “Академнашр”, 2012.

(5). Турсунов Б. Ўзбек адабиёти тарихи. Ташкент, “Фан”, 2008.

(6). Қодиров П. Юлдузли тунлар. Ташкент, Ғафур Ғулом нашриёти, 1999.

(7). Авлоний А. Тарбия масалалари. Ташкент, Ўзбекистон “Педагогика” нашриёти, 2003.

(8). Исломов Р. Жадид олимлар асарлари. Педагогик тадқиқотлар, Тошкент, “Фан”, 2015.

(9). Comparative analysis of Zahiriddin Muhammad Babur’s inner experiences in the works of harold lamb and primqul qodirov. Lobar Avazova, International Scientific Symposium “From Common Historical Roots to Strategic Cooperation”, dedicated to the 30th anniversary of the establishment of diplomatic relations between Azer-baijan and Uzbekistan.

Dosxodjaeva Amangul (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti «Umumiy pedagogika» kafedrasi katta o‘qituvchisi)

QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARI ASOSIDA OILADA BOLALARNI MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq ertaklarining oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati yo’ritilib, ular orqali xalollik, mehnatsevarlik va hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishning samarali jihatlari asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *qoraqalpoq xalq ertaklari, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, oila tarbiyasi, bolalar, rostgoylik, mehnarsevarlik, shaxsni shakllantirish.*

ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Аннотация. *В данной статье раскрывается значение каракалпакских народных сказок в духовно-нравственном воспитании детей в семье, а также обосновываются эффективные аспекты формирования таких качеств, как честность, трудолюбие и уважение, посредством их использования.*

Ключевые слова: *каракалпакские народные сказки, духовно-нравственное воспитание, семейное воспитание, дети, честность, трудолюбие, формирование личности.*

THE IMPORTANCE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY BASED ON KARAKALPAK FOLK TALES

Annotation. *This article highlights the significance of Karakalpak folk tales in the spiritual and moral upbringing of children within the family context, and substantiates the effective role of these narratives in cultivating such qualities as honesty, diligence, and respect.*